



HUQUQBUZARLIKLER PROFILAKTIKASI SUBYEKTLARI TASNIFI HAMDA O'ZARO HAMKORLIGI

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiytasi 317-guruh kursanti
Hakimov Hazratbek Hamza o'g'li*

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbliji shundaki, ichki ishlar organlarining huquqbazarliklar profilaktikasi subyektlari tushunchasi va tasniflanishining xususiyati hamda tashkiliy-huquqiy asoslari, shuningdek, huquqbazarliklar profilaktikasi subyektlari tasnifi hamda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatining tushunchasi, asosiy xususiyatlari, mazkur faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normalar va ularni qo'llash amaliyoti tahlil qilinib, takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Annotatsiya: *Актуальность темы данной научной статьи заключается в том, что сущность и организационно-правовые основы понятия и классификации субъектов профилактики правонарушений органов внутренних дел, а также понятие классификации субъектов профилактики правонарушений и понятия, основные характеристика, правовые нормы, регулирующие данную деятельность и их применение. Проанализирована практика применения и разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию.*

Ilmiy maqolaning dolzarbliji:" Mustaqillik yillarda huquqbazarliklar profilaktikasi nafaqat ichki ishlar organlari faoliyatining, qolaversa mamlakatimizda huquq-tartibot va qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi.

O'tgan yillar davomida ushbu sohada amalga oshirilgan keng ko'lamlı islohotlar natijasida huquqbazarliklar profilaktikasi o'zining tashkiliy va huquqiy asoslariga ega bo'lganligi bilan birga, insonparvarligi, keng qamrovliligi, kompleks xususiyatga egaligi, samaradorligi, shuningdek oshkorralik, keng jamoatchilikning ishtiropi, xalq ommasining fikriga tayanish tamoyillariga asoslanishi natijasida ahamiyati ortib bordi.

O'zbekistan Respublikasi Prezidentining «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va konuniy manfaatlarini ishonchli ximoya kilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 10 apreldagi PF-5005-sonli Farmoni, shuningdek ichki ishlar organlarining huquqbazarliklar barvaqt profilaktikasi va oldini olish bo'yicha faoliyatini tubdan takomillashtirish maksadida 2017 yil 18 apreldagi "Ichki ishlar organlarining xukukbazarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PK-2896-sonli karori asosida axoli turar joylarida xukukbazarliklarning oldini olishning yangi tizimi tashkil etildi.

Bugungi kunda respublikamizda faoliyati yo'lga ko'yilgan ichki ishlar organlari tayanch punkitlarining 90,0 foizdan ortig'i fukarolarning o'zini o'zi boshkarish organlari bilan bitta binoda joylashganligi profilaktika inspektorlari va ichki ishlar organlari boshka sohaviy



xizmatlari hodimlarining kecha-yu kunduz ushbu mahalla fuqarolar yig'inidagi komissiyalar bilan xamkorlikda xizmatni tashkil etishiga zamin yaratmokda.

Huquqbazarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirishning asosiy yo'naliishlari:

birinchi - huquqbazarliklar profilaktikasi bo'linmalarining respublika, o'rta va quiy় pog'onalari faoliyatining sifat jihatidan yangi tartibini o'rnatish, bunda ularning asosiy vazifalari, funksiyalari hamda javobgarligini aniq belgilash va chegaralash, profilaktika inspektorlari zimmasiga ular faoliyatiga xos bo'limgan funksiyalar yuklatilishiga yo'l ko'ymaslik; ikkinchi - profilaktika ishini aholi, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshka institutlari bilan yaqin hamkorlikda tashkil etish, ushbu ishni, birinchi navbatda, xukukbazarliklarning barvaqt oldini olishni ta'minlashga; uchinchi - voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash tizimini ularni Vatanga muxabbat, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy kadriyatlarga xurmat ruhida tarbiyalashga, o'sib kelayotgan yosh avlodni terrorizm, ekstremizm, zo'ravonlik va shavqatsizlik g'oyalaridan himoyalashga yo'naltirilgan holda rivojlantirish; to'rtinchi - profilaktika inspektorlarining zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarning talab darajasida bajarilishi uchun shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, shu jumladan o'zlarining faoliyati haqida jamoatchilik oldida tizimli ravishda hisobot berishlarini yo'lga qo'yish, ularning aholini tashvishga solayotgan muammolarga yuzaki munosabatda bo'lish holathariga chek qo'yish; beshinchi - profilaktika inspektorlari faoliyati samaradorligini baxolashning ta'sirchan mezonlarini joriy etish, bunda, birinchi navbatda jamoatchilik fikri, ularning faoliyati natijalaridan fuqarolarning qanoatlanishi hamda aholi bilan hamkorlik darajasini hisobga olish; oltinchi -ushbu sohaga zamonaviy axborot -kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbik etish, profilaktika inspektorlarining bilim darajasi va kasbiy tayyorgarligini oshirish, ular uchun munosib ish sharoitlari yaratish , ularni bevosita o'zlariga biriktirilgan hududda xizmat turar joyi bilan ta'minlash, zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish natijadorligi uchun moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish.

Huquqbazarliklar profilaktikasi subyektlarini tasniflaydigan bo'lsak, bu subyektlar tasniflanishiga ko'ra to'rtta turga bo'linadi.

- 1) Davlat siyosatini belgilab bo'luvchi;
- 2) Huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi;
- 3) Huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirishda ishtirok etuvchi;
- 4) Faoliyatni muvofiqlashtiruvchi organ va muassasalarga bo'linadi.

Shu o'rinda huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasalar faoliyati hamda o'zaro hamkorligi faoliyat samaradorligini oshirishda muhum ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabrdagi "Ichki ishlar organlari tug'risida"gi konunining 11 -moddasida ichki ishlar organlari o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida, qonun xujjalarda belgilangan tartibda davlat organlari, fukarolarning o'zini o'zi boshkarish organlari va boshka tashkilotlar bilan xamkorlik qiladi hamda aniklangan jinoyatlar va boshka huquqbazarliklarga oid mavjud materiallar tug'risidagi axborotni almashishni, shu jumladan elektron shaklda almashishni, shuningdek boshka



axborotni almashishni amalga oshiradi. Davlat organlari, fukarolarning o'zini o'zi boshkarish organlari va boshka tashkilotlar fukarolarning xukuklari, erkinliklari va konuniy manfaatlarini himoya qilishda, jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlashda, jinoyatlar va ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek ko'yish, ularni fosh etishda, jinoyat ishlarini tergov kilishda, jinoyatchilarni qidirishda, bedarak yuqolganlarning turgan joyini aniqlashda, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasida ichki ishlar organlariga o'z vakolatlari doirasida ko'maklashishi shartligi ko'rsatib o'tilgan. O'zbekistan Respublikasining 2014-yil 14-may kuni qabul qilingan «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunining 9-moddasida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar tizimi belgilab berilgan.

Ilmiy o'rganishimiz natijasida Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo'yicha respublikada yaxlit huquqiy tizim yaratilgan bo'lib, unda ichki ishlar organlari muhim o'rinn egallaydi.

So'nggi yillarda huquqni muhofaza qilish, birinchi navbatda, jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida hamkorlikni kengaytirish va kuchaytirish yaqqol namoyon bo'lmoqda. Buni jahonda integratsiyalashuv jarayonlarining jadal rivojlanishi, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy aloqalarning kengayishi, transport va aloqa vositalarining takomillashuvi, davlatlarga kirish va chiqishning, chegara va bojxona rasmiyatchiliklarining osonlashtirilishi, xalqaro munosabatlarda umuminsoniy kadriyatlarning, adolatlilik va birdamlik g'oyalarining ustuvorligi taqozo etmoqda.

O'tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari tizimi takomillashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshiriladi. Ayniksa, ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan kuyi bo'g'inini rivojlanirish va mustahkamlash bo'yicha salmoqli ishlar qilindi.

Bugungi kunda yuzaga kelayotgan xavf-xatar va tahdidlar, avvalo, xalqaro terrorizm, ekstremizm, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, yoshlar o'rtasida xalqimizga yot g'oyalar tarqalishining tobora kuchayib borayotganligi ichki ishlar organlari oldida o'z vaqtida ularning oldini olish va ularga barxam berish bo'yicha yangi vazifalarni qo'yomokda.

O'zbekistan Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev fikricha: birinchidan, ichki ishlar organlari mansabdor shaxslari, shu jumladan profilaktika inspektorlarining aholi bilan muloqoti yo'lga ko'yilmagan, fuqarolar bilan muomala madaniyati pastligicha qolmokda, aholining eng muhim muammolarini hal etish borasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlik ta'minlanmayapti ikkinchidan, jismoniy va yuridik shaxslarniig murojaatlari yuzaki ko'rib chiqilmokda, ularda ko'tarilayotgan masalalar xar tomonlama chuqur tahlil qilinmayapti, murojaatlarga rasmiyatchilik uchungina javob berilayotgani fuqarolarning noroziligini keltirib chiqarmoqda, ularni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq kabulxonalariga va boshka tashkilotlarga shikoyat bilan murojaat etishga majbur qilmoqda; uchinchidan, ichki ishlar organlari mansablor shaxslarniig aholi oldida hisobot berib borishining ta'sirchan tizimi, ularning faoliyati ustidan jamoatchilik, parlament va deputatlik nazoratining samarali mexanizmlari joriy etilmagan, bu



esa xodimlarning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali bajarishi uchun mas'uliyatini oshirish imkonini bermayapti; to'rtinchidan, huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo'yicha ishlar asosan, sodir etilgan g'ayri qonuniy qilmishlarning oqibatlariga qarshi kurashishdan iborat bo'lib qolmoqda, huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish, ularni sodir etish sabablari va shart-sharoitlarini chuqur tahlil qilish, aniqlash va bartaraf etish bo'yicha tizimli va samarali chora-tadbirlar ko'rilmayapti; beshinchidan, o'sib kelayotgan avlodni buzg'unchi g'oyalardan ximoya qilishga, yoshlar jinoiy faoliyatga, avvalambor, terrorizm va ekstremizmga jalb etilishining oldini olishga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti, ichki ishlar organlarining tarbiyaviy o'rni sezilmayapti.

Yuqoridagilarni inobatga olib ichki ishlar organlari huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar bilan hamkorlikni tashkil etishda bir qator to'siqlarga duch kelinmoqda. Ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1 Huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirishda kuch va vositalar to'g'ri taqsimlanmaganligi;

2 Huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar va muassasalar xodimlari yetarli bilim va ko'nigmaga ega bo'limganligi uchun o'zlarining vazifalarini to'g'ri va to'liq tushinib yetmaganligi;

3 Sud organi bilan xamkorlikdagi asosiy muammo bu, ichki ishlar orgshanlari profilaktika inspektorlari sodir bo'lgan ma'muriy huquqbazarligi yuzasidan to'plangan xujjalarni ichki ishlar organlari bilan sud organlari o'rtasida ushbu to'plangan xujjalarni elektron baza orqali ro'yxatidan o'tkazishda qator qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda;

4 Sog'liqni saqlash muassasalari bilan qilinadigan xamkorlikdagi asosiy muammolardan biri bu, viloyat narkalogiya dispanseri viloyat xududida bittaligi;

5 Huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirishda ichki ishlar organlari va ommaviy axborot vositalari bilan xamkorligi to'g'ri tashkil etilmaganligi;

6 Ichki ishlar organlarini huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar o'rtasida ushbu faoliyatni tartibga soluvchi umumiy bir normativ hujjat yaratilmaganligi.

Yuqoridagi muammo va kamchiliklarni inobatga olgan holda huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirishda quyidagi ishlar qilinsa maqsadga muvofiq bo'lib huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar va muassasalar faoliyati samaradorligiga erishilgan bo'lar edi:

1 Huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirishda kuch va vositalardan to'g'ri taqsimlash kerak ya'ni, ayrim xududlar kattaligiga qaramasdan ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxsiy tarkib kamligi, shuning uchun shaxsiy tarkibni to'g'ri taqsimlash kerak;

2 Huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar va muassasalar xodimlari ushbu soxada yetarlibilimga, ko'nigmaga ega emasligi shuning uchun, ularni bosqichma-bosqich o'qitish tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish;

3 Huquqbazarliklar profilaktikasini amalga oshirishda sud organlari bilan xamkorligida profilaktika inspektorlari sodir bo'lgan ma'muriy xuquqbazarligi yuzasidan to'plangan



xujjatlarni ichki ishlar organlari bilan sud organlari o'rtasida ushbu to'plangan xujjatlarni elektron baza orqali ro'yxatidan o'tkazadigan xodimlarni kompyuter texnikasini yaxshi tushunmasligi uchun ularni qaytadan malaka oshirish kursida o'qitish kerakligi;

4 Sog'lijni saqlash muassasalari bilan xuquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishdagi asosiy muammolardan biri, Viloyat narkalogiya dispanseri viloyat xududida bittaligi sababli ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari xizmat faoliyati davrida duch kelgan ichkilikka taksikamaniyaga av boshqa kasalliklarga ruchu qo'yan shaxslarni majburiy davolash uchun Narkologiya dispanseri shifokoridan xulosa olishga kelganida ushbu muassasada joyt yo'qligi yoki xulosa beradigan vrachning ayrim paytlarda topilmasligi uchrab turadi. Ushbu faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yish yuzasidan xar bir tuman shaxar xududidagi kasalxonalarda bittadan mutaxasis jalb qilinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi;

5 Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda ichki ishlar organlari va ommaviy axborot vositalari bilan xamkorligidagi asosiy kamchiliklar profilaktika inspektori o'z xizmat xududida xuquqbuzarliklar va jinoyatlarni oldini olish yuzasidan televideniyadan chiqishlar tashkil etilmaganlagi, chiqish qilmoqchi bo'lganlari xam televideniyada vaqt yo'qligini ro'kach qilib ushbu chiqishlarni orqaga surib kelayotganligidir. Ushbu xolat yuzasidan ichki ishlarni organi raxbari ommaviy axborot vositalari boshlig'i bilan o'zaro qo'shma o'aror imzolab bunday chiqishlarni o'z vaqtida efirga uzatishni tashkil etish;

6 Ichki ishlar organlarini xuquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning o'rtasida ushbu faoliyatni tartibga soluvchi umumiy bir normativ hujjat yaratilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.